

# Xitoyda choy qo'ziqorinidan polimer yaratildi

// 20.01.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/xitoyda-choy-qo-ziqorinidan-polimer-yaratildi>



Xitoyning Gonkong universiteti (CUHK) mutaxassislari choy qo'ziqorini ichimligidan plastik muqobilini yaratishdi. Mahsulot choy va shakarni bakteriya va xamirturush bilan achitish tufayli olingan. Natijada polimer tipidagi bakterial selluloza ajratib olingan. Tadqiqot mualliflaridan biri Ngay Toning ta'kidlashicha, undan biologik parchalanuvchi qadoqlash sifatida foydalanish mumkin.

"Ushbu yangi materialni suv o'tkazmaydigan va yog'ga chidamli qilishimiz mumkin. Biz foydalanadigan ingredientlar juda qimmat emas, chunki asosan choy barglari va shakardan foydalanamiz.

Yangi polimerdan sumkalar, qopqoqlar, qutilar va boshqa materiallarni tayyorlash mumkin. Bundan tashqari, sintetik terini yaratishda ham foydalanish imkoni bor, — deydi mutaxassis.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**